

TA'LIMNI O'ZLASHTIRAOLMASLIK MUAMMOSINING PEDOGOGIK -PSIXOLOGIK SABABLARI

¹Majidov Jasur Baxtiyarovich, JDPU Umumiy psixologiya kafedrasida katta o'qituvchisi

²Nabijonova Gulnoza, Pedagogika va psixologiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda ta'limni o'zlashtiraolmaslik muammosining ayrim pedagogik va psixologik omillari hususida fikrlar yuritilgan.

Kalit so'zlar: ta'limni o'zlashtiraolmaslik, kichik maktab, ulgurmovchilik, pedagog, ijtimoiy, ta'lim, integratsiya.

Har tomonlama yetuk, sog'lom mustaqil fikrlovchi shaxslarni tarbiyalashda boshlang'ich sinflarda beriladigan ta'lim va tarbiyaning ahamiyati beqiyosdir. Boshlang'ich sinf o'quvchisi oladigan bilimlari, ko'nikma va malakalari uning sezitivlik davriga to'g'ri keladi. Mana shu jarayonda o'quvchilarning maktab ta'limiga moslashib, berilayotgan bilimlarni o'zlashirib shaxs sifatida kamol topib borishi kuzatiladi.

Ammo har bir sinfdan 3-4 ta bo'sada, ulgurmovchi o'quvchilar mavjud. Bunday o'quvchilarning bilish jarayonlari orqada qolibgina qolmay, bevosita tengdoshlarining ham o'zlashtirishlariga va bilim asoslarini egallashlariga ma'lum darajada salbiy ta'sir ko'rsatadi. Xuddi shu sababli, boshlang'ich sinflardagi ulgurmovchi o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini o'rganish va uni korreksiya qilish dolzarb masala hisoblanadi.

Darxaqiqat, ulgurmovchilik yoki ta'limni o'zlashtirmaslik muammosi bugun ko'zga tashlanayotgan xodisa emas, lekin bugun bu muammo har qachongidan-da dolzarblashib bormoqda. Sababi-ki, borgan sari o'zlashtirmovchi, ulgurmovchi o'quvchilar soni ortib bormoqda.

BMT ma'lumotlari bo'yicha dunyo miqyosida psixik va jismoniy rivojlanishida 150 mln.gacha yaqin nuqsonli bolalar mavjud. Umumjahon sog'liqni saqlash ma'lumotlariga ko'ra dunyoda bunday kishilar soni 13% ga yaqinligidan dalolat beradi. 3% intellektida buzilishi bor bolalar va 10% turli psixik nuqsonli bolalardir. Ularning ya'ni jismoniy zaif rivojlangan bolalar safi har yili 10% ga oshib bormoqda. Dunyoda imkoniyati cheklangan bolalar 2 mln atrofidadir.

Bunday muammolarni yuzaga keltirayotgan sabablar nimalardan iborat?

Albatta, bunday muammolar yuzaga kelishining ko'plab pedagogik-psixologik omillari mavjud. Quyida biz bu omillarning ayrimlari hususida to'xtalib o'tamiz.

Umumta'lim maktablariga jalb qilinayotgan 6 yoshli bolalar pedagogik-psixologik tashxis natijalariga asoslanib maktab ta'limiga tavsiya etiladi. Lekin, ayrim ota-onalar farzandini yoshiga to'lmagan, uning ta'lim olishini xohlaydi. Shu o'rinda bir mulohaza tug'iladi. Sinfdan yaxshi o'zlashtira olmayotgan

o'quvchilarning ko'payib borayotganiga aynan shunday ota-onalar sabab bo'lib qolayotgandir, ehtimol. Shunday ota-onalar borki, bir yilni tejash maqsadida farzandini vaqtlitiroq maktabga berishga intiladi. Lekin bu xohish farzandini qiynab qo'yishini tushunib etmaydilar. "Farzandim uquvli, tez ilg'ab, o'zlashtirib oladi. O'qishni ham eplab ketishiga ishonaman", deb hisoblashadi. Defektologlarning fikricha, bola har qaysi yoshini o'z davrida bosib o'tgani ma'qul, aks holda, unga yuklatilgan ortiqcha yumush ruhiyatiga salbiy ta'sir etishi mumkin. Aynan tekshiruvlar davomida boshlang'ich sinfning o'zidanoq bunday o'quvchilarning darslarga ulgura olmay, yozish va o'qishda qiynalayotganligining guvohi bo'lib turibmiz. Buning sababi nimada? Maktabning 1-sinfiga qabul qilingan 6-7 yoshli o'quvchi 1-,2-chorak davrini oson o'zlashtiradi, chunki bu davrda she'r, hikoyalar qisqa bo'ladi. Keyingi davrga kelib esa ko'proq so'zlardan iborat bo'lgan matnlar qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Matematikadagi qo'shish, ayirish amallarining murakkablashib, sonlarning kattalashib borishi o'quvchini qiynab qo'yadi. Buning asosiy sabab maktabga chiqish oldidan 6-7 yoshli bolalar ko'rigi xulosalari asosida bola to'liq sog'lomlashtirilmay maktabga chiqarilishidir. Ayniqsa, MTMga bormagan bolada bu jihatdan qiyinchilik ko'proq kuzatiladi. Negaki, maktabgacha ta'lim muassasalarida mashg'ulotlar ko'rgazmali shaklda o'tilib, tafakkurning fazoviy idrokini rivojlantirishga qaratiladi. Har bir mashg'ulot bolaning yoshiga qarab guruhlarga bo'lingan holda o'tilishi ham bejiz emas. Mashg'ulot davrida so'zlardagi bo'g'in ko'chirish, unli, undosh tovushlarga ajratishda turli shakllardan foydalaniladi. Bu mashg'ulot jarayonida bola so'zlardagi tovush va bo'g'inlarni ajratish bilan birga rang, shakllarni farqlay olishni o'rganadi. Aqliy faoliyati, idroki, qolaversa, tafakkuri me'yorda rivojlanib kelayotgan 5 yarim, 6 yoshli bolaning ruhiy holatiga maktab dasturlari ta'sir qilib, u injiq, yig'loqi, qaysar bo'lib qoladi, maktabga borishni ham xushlamaydi. Bunday holatda, o'qishga nisbatan paydo bo'lgan salbiy munosabat yillar davomida o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi.

Defektologlar fikricha bu jarayonda ruhiy-pedagogik omillar ham yaqqol namoyon bo'ladi. Bu omillar asosan quyidagilardan iborat:

1. Ota-ona tomonidan diqqat e'tiborning sustligi.
2. Bolalarga nisbatan qattiqqo'llik.
3. Oilaning intellektual saviyasining pastligi.
4. Fojiali vaziyat

Bugungi zamonaviy ta'lim shaxsga yo'naltirilganlikni o'zida yetarlicha aks ettirib ulgurdi. Bu jarayonda har bir pedagog-o'qituvchining mas'uliyati tobora oshib bormoqda. Biz yuqoridagi keltirib o'tgan muammo, ya'ni ulgurmovchilik, o'zlashtirmovchilikning yuzaga kelishida pedagoglarimizning ham xissasi bormi? ,-degan savol tug'ilishi tabiiy hol, albatta. Ha bor. Biz bu jihatga ko'z yuma olmaymiz.

Ha o'zlashtirmovchilikni keltirib chiqaruvchi psixologik sabablar orasida o'qituvchilarimizning ta'siri ham juda katta. Uning birinchidan – darsga tayyor bo'lmagan holda dars o'tishi, o'z ustida kam ishlashi. Ikkinchidan- o'qitish, o'rgatish uslublarining bir xilligi yoki kamligi o'quvchilarda o'rganilayotgan material bo'yicha qiziqish uyg'ota olmaslik, diqqatini jalb qila olmaslik.

Uchinchidan- darsni o‘tish mobaynida mavzuni o‘quvchilarga yerkazib berishda ketma –ketlikning, uzviylikning yo‘qligi, o‘qitish jarayonida zarur didaktik talablarni, hissiy o‘qitishni saqlamaslik. To‘rtinchidan – o‘tilgan materialni mustahkamlamaslik, uy vazifasini pala-partish ko‘rsatish yoki tushuntirish, o‘z ustida ishlashni rivojlantirmaslik. Beshinchidan – o‘z o‘quvchilarining o‘ziga tegishli bo‘lgan individual-psixologik xususiyatlarini bilmaslik, o‘zlashtirmovchi o‘quvchilar bilan alohida ishlamaslik. Bularga yana qo‘shimcha qilib aytsak, tarbiyaviy ishlarning va maktablarimizdagi tartiblarning durust yo‘lga qo‘yilmasligi ham o‘zlashtirmovchilikning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o‘zlashtira olmaslik va ulgira olmaslik muammolarini keltitib chiqaruvchi sabablar talaygina. Biz bu jarayonda o‘z bilim va tajribamiz, har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini inobatga olib, yondasha olishimiz, korreksion o‘qirishni tashkil etishi orqali bu kabi muammolarni kamayishiga xissa qo‘sha olishimiz mumkin. Buni unitmasligimiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mamedov K.K. G‘.Shoumarov. Ruhiiy rivojlanishi sustlashgan bolalar haqida. Toshkent.1993 yil.
2. Rahmonova V.S. Defektologiya asoslari. Ma’ruza matni. T.2004 yil.
3. Rubinshteyn S.Ya. Psixologiya umstvenno otstalogo shkolnika. M 1970
ПСИХОЛОГИК ҲОДИСА СИФАТИДА. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 1(1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/723>
4. Majidov, J. (2021). ВОПРОСЫ ГАРМОНИИ ПРЕДСТАВЛЕНИЯ МОЛОДЕЖИ О СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ И УДОВЛЕТВОРЕННОСТИ СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНЬЮ. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 1(1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1369>
5. Majidov, J. (2021). НЕКОТОРЫЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОЯВЛЕНИЯ ЧУВСТВА ОДИНОЧЕСТВА В ПОДРОСТКОВОМ ПЕРИОДЕ. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 1(1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1375>
6. Majidov, J. (2021). ШАХСГА ТИЗИМЛИ ЁНДАШИШДА ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, (3). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4325>
7. Majidov, Jasur Baxtiyarovich (2022). SOTSIAL INTELLEKT VA UNING INSON HAYOTIDAGI O‘RNI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (2), 608-613.
8. Эшонкулова, Х. (2022). ИҚТИДОРЛИЛИК МУАММОСИНИНГ ПСИХОЛОГИК ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ. Журнал Педагогика и психологии в

- современном образовании, 2(7). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5762>
9. Majidov, J. (2022). ЎСМИРЛИК ДАВРИГА ХОС СУИЦИДАЛ ХУЛҚНИНГ АЙРИМ САБАБЛАРИ. Журнал Педагогикаси ва психологияси в современном образовании, 2(7). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5766>
10. Majidov, J. (2021). ЁШЛАРНИНГ ОИЛАВИЙ ҲАЁТ ҲАҚИДАГИ ТАСАВВУРЛАРИ ВА ОИЛАВИЙ ҲАЁТДАН ҚОНИҚИШ УЙҒУНЛИГИ МАСАЛАЛАРИ. Журнал Педагогикаси ва психологияси в современном образовании, 1(1).
11. Жасур, М. (2022). ГЕНДЕР УСТАНОВКАЛАРИ ВА ИЖТИМОЙЛАШУВ ЖАРАЁНИНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИГИ. *Involta Scientific Journal*, 1(6), 69-77.
12. Жасур, М. (2022). ГЕНДЕР УСТАНОВКАЛАРИ ВА ИЖТИМОЙЛАШУВ ЖАРАЁНИНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИГИ. *Involta Scientific Journal*, 1(6), 69-77.
13. Мажидов Жасур, & Ҳамдамов Ҳайдарбек. (2022). ШАХСГА СТРУКТУРАВИЙ ЁНДАШИШДА ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ. *Involta Scientific Journal*, 1(7), 138–148. Retrieved from <https://involta.uz/index.php/iv/article/view/255>
14. Majidov, J. (2022, March). BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TA‘LIMI O‘ZLASHTIRISH MUAMMOSINING PEDOGOGIK-PSIXOLOGIK SABABLARI. In International Virtual Conference on Language and Literature Proceeding (Vol. 1, No. 1).
15. Majidov, J. B., Sobirov, A. B., Karshiboeva, D. B., & Mamarayimova, R. U. (2022). Factors Of Formation Of The Scientific Worldview Of The Person And Their Interrelation. *PORTA LINGUARUM*, 37, 65-70.
16. Majidov, J., & Jo‘rabek, A. (2022). МЕНРИБОНЛИК УЙИ ТАРБИЯЛАНУВЧИЛАРИ ИЖТИМОЙЛАШУВИНИНГ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. Журнал Педагогикаси ва психологияси в современном образовании, 2(5).
17. Мажидов, Ж. Б. (2022). ГЕНДЕР УСТАНОВКАЛАРИ ВА ШАХСНИ ЎЗИНИ-ЎЗИ ИДРОК ЕТИШИ ЎРТАСИДАГИ БОҒЛИҚЛИК МУАММОЛАРИ. *Ученый XXI века*, (5-2 (86)), 19-24.
18. Ж.Мажидов-. (2023). ЛИДЕРЛИК СИФАТЛАРИНИНГ ГЕНДЕР ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. *Involta Scientific Journal*, 2(4), 293–298. Retrieved from <https://involta.uz/index.php/iv/article/view/540>
19. Jo‘rayev, O. (2023). TALABALARDA IRODAVIY FAOLLIKNI NAMOYON BO‘LISHINING GENDER TAFOVUTLARI. Журнал Педагогикаси ва психологияси в современном образовании, 3(3), 116-119. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8727>
20. Jo‘rayev O‘.T. Xorij psixologiyasida iroda muammosining tadqiqi. *O‘zbekiston Milliy universiteti xabarлари ilmiy jurnali* 75-77 betlar. 2021. [1/6] ISSN 2181-7324

21. Jo'rayev O.T. Irodaviy faollikning shaxslilik va gender tafovutlari. O'zbekiston Milliy universiteti xabarlari ilmiy jurnali. 2023 aprel [1/3] ISSN 2181-7324
22. Жураев, У. Т. (2020). Практический анализ функционирования ситуационных и личностных детерминант волевой деятельности. *Проблемы современной науки и образования*, (1 (146)), 108-110.
23. Жураев, У. Т. (2020). Психологические детерминанты формирования навыка личности. *Вестник науки и образования*, (7-2 (85)), 98-100.
24. Жураев, У. Т. (2018). Modern psychological character of terrorism. *Научные горизонты*, (3), 31-35.